

## **JISMONIY SHAXSLARGA “MUDDATLI TO‘LOV” ONLAYN MIKROQARZINI AJRATISH BO‘YICHA OMMAVIY OFERTA**

Mazkur Oferta AT “Aloqabank” (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) tomonidan Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi va/yoki elektron platformasi orqali jismoniy shaxslar bilan muddatli to‘lov onlayn mikroqarz shartnomasini (bundan buyon matnda “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzish bo‘yicha rasmiy taklifi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs (bundan buyon matnda “Qarz oluvchi” deb yuritiladi) Oferta shartlari bilan tanishib to‘liq va e’tirozsiz aksept qilganidan so‘ng Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Qarz oluvchining Bank tomonidan unga yuborilgan SMS-xabarnomada ko‘rsatilgan kodni Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi yoki elektron platformasiga kiritishi orqali yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul orqali tasdiqlashi hamda muddatli to‘lov bo‘yicha kreditning qaytmaslik xataridan sug‘urta polisi bo‘yicha sug‘urta mukofotining to‘lanishi mazkur ofertani va Muddatli to‘lovning individual shartlarini qabul qilish va akseptlash deb baholanadi.

### **I. ATAMALAR**

1.1. Mazkur Shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**Muddatli to‘lov** – Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi va/yoki elektron platformasi orqali milliy valyutada, jismoniy shaxslarga (Qarz oluvchilarga), mazkur ofertada nazarda tutilgan hamda Muddatli to‘lovning individual shartlarida belgilangan shartlar asosida Bank tomonidan pul ko‘chirish yo‘li bilan taqdim etiladigan ma‘lum miqdordagi pul mablag‘lari.

**Qarz oluvchi** – Muddatli to‘lovdan foydalanish istagida bo‘lgan, Muddatli to‘lov rasmiylashtirish uchun Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi yoki elektron platformasi orqali Bankka ariza taqdim etgan va mazkur oferta asosida Muddatli to‘lov rasmiylashtiruvchi jismoniy shaxs.

**Oferta** – Bank tomonidan tasdiqlangan, Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi va/yoki elektron platformasi orqali keng ommaga e‘lon qilingan, unda ko‘rsatilgan shartlar asosida Shartnoma tuzish bo‘yicha taklif;

**Muddatli to‘lovning individual shartlari** – Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi va/yoki elektron platformasi orqali Individual shartlarni va mazkur Ofertani akseptlash orqali Qarz oluvchi tomonidan Muddatli to‘lov olishda aks ettiriladigan va Bank tomonidan Qarz oluvchi uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasi doirasida mijozga Muddatli to‘lov taqdim qilishning muayyan shartlari (summasi, muddati va h.k.). Muddatli to‘lovning individual shartlari har bir Qarz oluvchi uchun mazkur Ofertaning **1-ilovasida** keltirilgan shaklda tasdiqlanadi;

**Kredit arizasi** – Qarz oluvchiga Muddatli to‘lov taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi va/yoki elektron platformasi orqali Qarz oluvchi tomonidan (potensial qarz oluvchi tomonidan) Bankka yuboriladigan va Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda so‘ralayotgan Muddatli to‘lov to‘g‘risida umumiy axborotni o‘z ichiga olgan hujjat (Hamkor tashkilot(lar)ning mobil ilovasi va/yoki elektron platformasida tuziladi);

**Mobil ilova** – tovar va (yoki) xizmatlarni sotib olish hamda ularning to‘lovi uchun masofadan turib onlayn mikroqarz (Muddatli to‘lov) rasmiylashtirish imkonini beruvchi mobil qurilmalar uchun mo‘ljallangan hamkor tashkilot(lar)ning dasturiy-texnik vositalari;

**Elektron platforma** – tovar va (yoki) xizmatlarni sotib olish hamda ularning to'lovi uchun masofadan turib onlayn mikroqarz (Muddatli to'lov) rasmiylashtirish imkonini beruvchi hamkor tashkilot(lar)ning veb sayti yoki elektron savdo platformasi;

**Hamkor tashkilot** – Bank bilan O'zaro hamkorlik bitimi tuzgan, o'zining Mobil ilova va/yoki Elektron platforma egasi bo'lgan yuridik shaxs;

**Muddatli to'lov bo'yicha ta'minot** – Muddatli to'lov summasining 100% dan kam bo'lmagan summada kredit so'ndirilmasligi xavfini sug'urtalash polisi;

**Aksept** – Qarz oluvchining roziligini bildirishga, Muddatli to'lov olish uchun Bank tomonidan taklif qilingan shartlarni qabul qilishga yo'naltirilgan harakatlari;

**Mikroqarzning to'liq qiymati** – Muddatli to'lov olish bilan bog'liq to'lovlarning haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi.

## II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan shartlarda qarz ajratish majburiyatini, Qarz oluvchi esa ajratilgan qarz summasini Shartnomada belgilangan tartibda qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## III. UMUMIY QOIDALAR

3.1. Bank Qarz oluvchiga Shartnomaning **3.2-bandiga** asosan dasturiy ravishda Muddatli to'lov uchun limit miqdorini belgilaydi.

3.2. Muddatli to'lov limiti Qarz oluvchining daromadlari va qarz yukini inobatga olgan holda \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) **so'm**dan kam bo'lmagan va \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) *(summa)(summa so'z bilan)* *(summa)(summa so'z bilan)* **so'm**dan oshmagan miqdorda belgilanadi.

3.3. Muddatli to'lov Qarz oluvchining xohishiga ko'ra \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) *(muddat) (muddat so'z bilan)* yoki \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) oy muddatga ajratiladi. *(muddat) (muddat so'z bilan)*

3.4. Mobil ilova yoki Elektron platforma orqali sotib olinayotgan tovar va xizmatlar Qarz oluvchiga yetkazib berilgandan so'ng Muddatli to'lov summasi Qarz oluvchining pul mablag'larini ko'chirish to'g'risidagi topshirig'iga (so'roviga) asosan kredit hisobvarag'idan Qarz oluvchining nomiga ochilgan 29801 hisobvarag'iga o'tkaziladi hamda ushbu hisobvaraqdan Hamkor tashkilotning hisobvarag'iga o'tkazib beriladi va shu kundan boshlab Muddatli to'lov ajratilgan deb tan olinadi.

3.5. Qarz oluvchi belgilangan limit doirasida Shartnoma tuzilgan kundan boshlab **15 (o'n besh) kalendar kun davomida** Hamkor tashkilotning mobil ilovasi yoki elektron platformasi orqali muddatli to'lov asosida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan bir yo'la yoki bir necha marotaba tovar va xizmatlarni xarid qilishi va xarid qilingan tovar va xizmatlar to'lovini amalga oshirishi mumkin.

3.6. Muddatli to'lov bo'yicha foiz hisoblanmaydi, Muddatli to'lovdan foydalanganlik uchun to'lovlar Hamkor tashkilot va Bank o'rtasidagi o'zaro hamkorlik bitimiga asosan Hamkor tashkilot tomonidan to'lab beriladi.

3.7. Muddatli to'lovning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan

minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning 1-ilovasiga asosan hisoblanadi va Muddatli to'lovning individual shartlarida batafsil aks ettiriladi.

3.8. Hamkor tashkilotning Mobil ilovasi yoki Elektron platformasi orqali yo'llangan arizani Qarz oluvchi tomonidan yuborilganligi faktini tasdiqlash uchun Qarz oluvchi uning shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berishga Bankka roziligini bildiradi.

3.9. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi quyidagilarga roziligini bildiradi:

- Bank tomonidan aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalari va bildirishnomalar jo'natilishiga;

- Davlat personallashtirish markazidan olingan shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzcard, Humo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbaalardan shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlar olinishiga;

- bankka ma'lum bo'lgan bank siri ma'lumotlarini Hamkor tashkilotning elektron platformasi yoki mobil ilovasi orqali mazkur jamiyatga oshkor qilinishiga.

3.10. Qarz oluvchining Muddatli to'lov bo'yicha majburiyatlari kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi bilan Muddatli to'lovning 100% miqdorida ta'minlanadi. Bunda, sug'urta mukofoti summasi Shartnomani rasmiylashtirish jarayonida Qarz oluvchi tomonidan to'lanadi.

3.11. Sug'urta mukofoti to'lovi Qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi va Muddatli to'lov olish uchun ariza taqdim qilish jarayonida ko'rsatilgan bank kartasidan yechib olinadi.

3.12. Muddatli to'lovning ta'minoti hisoblangan kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi onlayn shaklda taqdim etiladi va ushbu polis bank ma'lumotlar bazasida saqlanadi.

#### **IV. MUDDATLI TO'LOVNI QAYTARISH TARTIBI**

4.1. Shartnoma tuzilgandan so'ng Qarzni qaytarish jadvali (bundan buyon matnda "**Jadval**" deb yuritiladi) rasmiylashtiriladi va ushbu jadval Shartnomaning ajralmas qismi (2-ilova) hisoblanadi.

4.2. Jadval Muddatli to'lovdan foydalanilganda avtomatik tarzda foydalanilgan summadan kelib chiqib o'zgaradi va Qarz oluvchi yangilangan Jadval bilan Bankning Zoomrad ilovasida yoki Hamkor tashkilotning elektron platformasi yoki mobil ilovasidagi shaxsiy kabinetida tanishishi mumkin.

4.3. Muddatli to'lovni qaytarish Jadvalga asosan har oyda teng ulushlarda, Muddatli to'lovdan foydalanilgan oyning keyingi oyidan boshlab amalga oshiriladi.

4.4. Muddatli to'lovning har oydagi to'lov sanasi haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e'lon qilingan bayram kunlariga to'g'ri kelganda to'lov sanasi keyingi ish kuniga ko'chiriladi.

4.5. Muddatli to'lov bo'yicha qarzdorlikni muddatidan avval qaytarilishiga ruxsat etiladi. Muddatli to'lovni muddatidan avval qaytarilganligi uchun qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

4.6. Muddatli to'lov bo'yicha qarzdorlikni qaytarish Qarz oluvchining ish haqi, boshqa daromadlari va tushumlaridan mablag'larni o'tkazish orqali, naqd pul kirim qilish orqali, bank kartalaridan mablag'larni o'tkazish orqali, Qarz oluvchining Muddatli to'lov

bo'yicha Bankdagi tranzit hisobvarag'iga o'tkazib berish orqali, avtomatik tarzda bank kartalaridan yechish yo'li orqali hamda infokiosklar, mobil ilovalar yoki boshqa elektron to'lov tizimlari yordamida to'lov qilish orqali amalga oshiriladi.

4.7. Qarz oluvchi tomonidan Muddatli to'lov bo'yicha qarzdorlikni qaytarish uchun amalga oshirilgan to'lov summasi Muddatli to'lov bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- birinchi navbatda – asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik;
- ikkinchi navbatda – joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- uchinchi navbatda – neustoyka (jarima, penya);
- to'rtinchi navbatda – Bankning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.8. Qarz oluvchidan Muddatli to'lovni to'lash uchun Jadvalda belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa va kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini Muddatli to'lovning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilganda Muddatli to'lovni qaytarish jadvali qayta rasmiylashtirilmaydi.

4.9. Qarz oluvchi tomonidan Muddatli to'lov o'z vaqtida qaytarilmaganda Bank Muddatli to'lovni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarish choralarini ko'radi.

## **V. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **5.1. Bankning huquqlari:**

5.1.1. Qarz oluvchi tomonidan Muddatli to'lov bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishi to'g'risida ma'lumotlarni Kredit byurolari va Kredit ma'lumotlarining davlat reestriga taqdim etish;

5.1.2. Muddatli to'lov bo'yicha to'lovlar haqida Qarz oluvchiga xabar berish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish;

5.1.3. Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan Muddatli to'lovni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish, undirib olish:

5.1.3.1. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;

5.1.3.2. Qarz oluvchiga har qanday shaklda jinoyat yoki fuqarolik ishlari bo'yicha Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan da'volar qo'zg'atilgan bo'lsa;

5.1.3.3. Bankda ushbu Shartnoma bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish, tasarruf etishda firibgarlik holatlari bilan bog'liq shubhalar mavjud bo'lganda;

5.1.3.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.1.4. Qarz oluvchining Bankda hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobraqamlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan Muddatli to'lov bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni va barcha hisoblangan neustoykalarni akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish);

5.1.5. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiya (shaxsni tekshirish) jarayonini amalga oshirish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Qarz oluvchi bilan bog'lanish;

5.1.6. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan Qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish;

5.1.7. Qarz oluvchi bilan telefon raqamlari, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari orqali bog'lanish va ularni yozib olish, Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish to'g'risida xatlar, elektron pochta xabarlar va SMS-xabarlar yuborish;

5.1.8. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda taqdim qilingan sug'urta polisi bo'yicha Muddatli to'lov qisman yoki to'liq qoplab berilganda, sug'urta to'loni to'langan to'lov miqdori doirasida Shartnoma bo'yicha regress talab huquqini bir tomonlama Sug'urta qiluvchiga o'tkazish (subrogatsiya).

## **5.2. Bankning majburiyatlari:**

5.2.1. Shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha Qarz oluvchiga belgilangan limit miqdori doirasida pul mablag'larini berish;

5.2.2. Qarz oluvchiga kredit hisobvarag'ini ochish;

5.2.3. Muddatli to'lovni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu Muddatli to'lov bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga Muddatli to'lov berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabarnoma yuborish;

5.2.4. Muddatli to'lov muddatidan oldin undiriladigan hollarda ushbu to'g'risida Qarz oluvchini Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabardor qilish;

5.2.5. Bank tomonidan Muddatli to'lov bo'yicha muddati o'tgan qarzдорliklarni so'ndirish uchun Qarz oluvchining bank hisobvarag'i va (yoki) omonatidan (shu jumladan, bank kartalaridan) mablag'lar Qarz oluvchining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarz oluvchiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish.

## **5.3. Qarz oluvchining huquqlari:**

5.3.1. Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda Muddatli to'lov berilishini talab qilish;

5.3.2. Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab **15 (o'n besh)** kalendar kun davomida Muddatli to'lov bo'yicha o'rnatilgan limitdan bir yo'la yoki qismlarga bo'lib foydalanish;

5.3.3. Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab pul mablag'lari berilgunga qadar Muddatli to'lovni olishdan bepul voz kechish;

5.3.4. Muddatli to'lovni istalgan vaqtda muddatidan oldin jarima sanksiyalarisiz so'ndirish;

5.3.5. Muddatli to'lov bo'yicha barcha to'lovlar Bankka to'liq qaytarilganda ushbu Shartnomani muddatidan avval bekor qilish.

## **5.4. Qarz oluvchining majburiyatlari:**

5.4.1. Muddatli to'lovni Jadvalga asosan o'z vaqtida to'lash;

5.4.2. Olingan Muddatli to'lovni mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi Bankning so'rovini olgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida to'lab berish;

5.4.3. Familiyasi yoki ismi, telefon raqami, ro'yxatdan o'tgan manzili, yashash joyi, passport ma'lumotlari o'zgarganda va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlar haqida 3 (uch) ish kuni ichida Shartnomada belgilangan

aloqa kanallari orqali yoki Bankning xizmatlar ko'rsatish markazlariga borgan holda Bankka xabar berish;

5.4.4. O'ziga nisbatan huquqni muhofaza qilish organlari, nazorat qiluvchi organlar yoxud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari, iqtisodiy, moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan boshlab Bankka 2 (ikki) ish kuni ichida xabar berish;

5.4.5. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash uchun chiqib ketayotganda Muddatli to'lov bo'yicha barcha qarzdorlikni muddatidan avval qaytarish;

5.4.6. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ochilgan barcha bank hisobvaraqlaridan Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur summani akseptsiz hisobdan chiqarish to'g'risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so'zsiz talab qo'yish huquqini Bankka taqdim etish.

## **VI. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI**

6.1. Quyidagi hodisalarning har biri majburiyatlarning bajarilmasligi holati hisoblanadi:

6.1.1. Mazkur Ofertada va Jadvalda belgilangan muddatlarda Muddatli to'lov bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaganligi;

6.1.2. Qarz oluvchi tomonidan Mobil ilova yoki Elektron platforma orqali qasddan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni kiritgan holda Bankni chalg'itish;

6.1.3. Qarz oluvchining to'lovga qodirligi yomonlashganligi to'g'risidagi yoki Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan axborotning yashirilishi;

6.1.4. Shartnoma shartlarining buzilishi.

## **VII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

7.1. Taraflardan biri Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, aybdor Taraf ikkinchi Tarafga yetkazilgan zarar qismini qoplaydi hamda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga va Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

7.2. Qarz oluvchi Shartnomaga asosan Muddatli to'lovni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan taqdirda muddati o'tgan qarzdorlik summasiga har bir kechiktirilgan kun uchun qonunchilikda belgilangan tartibda penya to'laydi.

7.3. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda neustoykadan tashqari yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

7.4. Bank Muddatli to'lovni berish majburiyatini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda Qarz oluvchi oldida qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

7.5. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun hisoblangan neustoykani to'lash majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

7.6. Qarz oluvchining telefon raqami o'zgarganligi, ishlamaganligi yoki yangi raqamini Bankka taqdim qilmaganligi sababli Qarz oluvchiga SMS-xabarlar bormaganligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

## **VIII. NIZOLARNI HAL ETISH**

8.1. Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida vujudga keladigan kelishmovchiliklar Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda va/yoki Qarz oluvchi nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sudda ko'rib chiqiladi.

## **IX. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

9.1. Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan Mobil ilova yoki Elektron platforma orqali akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

9.2. Shartnoma Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

## **X. ANTIKORRUPSIYAGA OID SHARTLAR**

10.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi ta'qiqlanadi.

10.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

10.3. Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tarafga bunday harakat sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shaklda (yoki Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi/Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi rahbariga aloqa kanallari yordamida) xabar berish majburiyatini oladi.

10.4. Xabarni olgan taraf haqiqatan korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

10.5. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa taraf qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

10.6. Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

## **XI. YAKUNIY SHARTLAR**

11.1. Shartnoma elektron tarzda Mobil ilova yoki Elektron platforma orqali elektron tarzda (elektron hujjat) tuzilib, Qarz oluvchi tomonidan mazkur Ofertani akseptlash orqali tasdiqlanadi va yozma shakldagi hujjatga tenglashtiriladi.

11.2. Shartnoma bo'yicha Taraflarning tartibga solinmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

11.3. Bank tomonidan Qarz oluvchiga xat-xabarlar jo'natish quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin: Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) yozma shaklda jo'natish yoki Qarz oluvchining elektron pochtasiga, telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlariga xabar jo'natish yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron xabar jo'natish.

11.4. Qarz oluvchi amalga oshirilgan to'lovlar va kredit qarzdorligi miqdori haqida, shuningdek Shartnoma bilan bog'liq boshqa holatlar bo'yicha uyali aloqa vositalari orqali SMS-xabarlar yuborilishiga Bankka o'z roziligini bildiradi.

## XII. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

**AT «Aloqabank»**

**Manzil:** \_\_\_\_\_

**MFO:** \_\_\_\_\_

**STIR:** \_\_\_\_\_

**Tel:** \_\_\_\_\_

## XIII. QARZ OLUVCHI MANZILI VA REKVIZITLARI

**F.I.Sh.:** \_\_\_\_\_

**Manzil:** \_\_\_\_\_

**Pasport ma'lumotlari:** \_\_\_\_\_

**JShShIR:** \_\_\_\_\_

**Aksept kodi:** \_\_\_\_\_

**Aksept vaqti:** \_\_\_\_\_

**Telefon raqami:** \_\_\_\_\_





## MUDDATLI TO'LOVNING INDIVIDUAL SHARTLARI

## Mikroqarzning to'liq qiymati

\_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) foiz  
 (miqdori) (so'z bilan)

Muddatli to'lov bo'yicha maksimal limit miqdori: \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm.  
 (summa) (summa so'z bilan)

Muddatli to'lov muddati: \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) oy.  
 (muddat) (so'z bilan)

Muddatli to'lovni so'ndirishning oxirgi muddati: \_\_\_\_\_.\_\_\_\_\_.\_\_\_\_\_ yil.  
 (sana)

Muddatli to'lov valyutasi: O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi;

Muddatli to'lov bo'yicha to'lovlarni to'lash sanasi: har oyning \_\_\_\_ sanasigacha.  
 (sana)

Muddatli to'lovni ajratish shakli: Tovar va xizmatlar to'lovi uchun Hamkor tashkilotning hisobvarag'iga pul mablag'ini o'tkazish yo'li orqali ajratiladi.

Muddatli to'lovni qaytarish usuli: Shartnomaga ilova qilingan to'lov grafigiga muvofiq har oy teng ulushlarda.

Mikroqarzning to'liq qiymati \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) foizni tashkil qiladi  
 (miqdori) (miqdor so'z bilan)

va u quyidagi to'lovlarni hisobga olib hisoblanadi:

a) Mikroqarzning asosiy qarzi – \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_\_ tiyin;  
 (summa) (summa so'z bilan)

b) Foizlar bo'yicha to'lovlar – \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_\_ tiyin;  
 (summa) (summa so'z bilan)

c) Sug'urta to'lovlari – \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_\_ tiyin;  
 (summa) (summa so'z bilan)

d) Garov mulkini baholash bo'yicha to'lovlar – \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_\_ tiyin;  
 (summa)(summa so'z bilan)

e) Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning 1-ilovasiga asosan boshqa to'lovlar – \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_\_ tiyin.  
 (summa) (summa so'z bilan)

F.I.Sh.: \_\_\_\_\_

Manzil: \_\_\_\_\_

Pasport ma'lumotlari: \_\_\_\_\_

JShShIR: \_\_\_\_\_

Aksept kodi: \_\_\_\_\_

Aksept vaqti: \_\_\_\_\_

Telefon raqami: \_\_\_\_\_



**MUDDATLI TO'LOVNI QAYTARISH GRAFIGI (NAMUNA)**

**Ushbu muddatli to'lovni qaytarish javdali ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.**

*(Ushbu qaytarish grafigi Muddatli to'lov limitidan to'liq foydalanilgan holat uchun mos keladi. Muddatli to'lovdan qisman foydalanilgan hollarda foydalanilgan limit summasini har bir oy uchun teng ulushlarda taqsimlanadi)*

Muddatli to'lov summasi **30 000 000 UZS**  
 Muddatli to'lov yillik foizi **0,0%**  
 Muddatli to'lov muddati (oy) **12**  
 Imtiyozli davr (oy) **0**

MFO: **00401**  
 To'lov ID kodi: **123456789**

| No           | To'lov sanasi | Muddatli to'lov qoldig'i summasi | Asosiy qarzni qaytarish |
|--------------|---------------|----------------------------------|-------------------------|
| 1            | 11.07.2022    | 30 000 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 2            | 10.08.2022    | 27 500 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 3            | 12.09.2022    | 25 000 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 4            | 10.10.2022    | 22 500 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 5            | 10.11.2022    | 20 000 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 6            | 12.12.2022    | 17 500 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 7            | 10.01.2023    | 15 000 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 8            | 10.02.2023    | 12 500 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 9            | 10.03.2023    | 10 000 000,0                     | 2 500 000,0             |
| 10           | 10.04.2023    | 7 500 000,0                      | 2 500 000,0             |
| 11           | 10.05.2023    | 5 000 000,0                      | 2 500 000,0             |
| 12           | 12.06.2023    | 2 500 000,0                      | 2 500 000,0             |
| <b>JAMI:</b> |               |                                  | <b>30 000 000,00</b>    |

**F.I.Sh.:** \_\_\_\_\_

**Manzil:** \_\_\_\_\_

**Pasport ma'lumotlari:** \_\_\_\_\_

**JShShIR:** \_\_\_\_\_

**Aksept kodi:** \_\_\_\_\_

**Aksept vaqti:** \_\_\_\_\_

**Telefon raqami:** \_\_\_\_\_

